

BANK XIZMATLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI

Karimova Nargiza Karimovna

Annotatsiya:

Raqamli iqtisodiyot va banklar faoliyatini transformatsiyalash mijozlarga yoʻnaltirilgan zamonaviy xizmat koʻrsatish orqali banklar faoliyati samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bundan tashqari, raqamli banklar istalgan vaqtda va istalgan joyda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini berib, iqtisodiy faoliyatga tezlashtiruvchi taʼsir koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli bank, transformatsiya, zamonaviy bank xizmatlari, texnologiyalar, dasturlar, innovatsiya.

Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarini masofaviy koʻrsatuvchi bank yoki uning tarkibiy boʻlinmasi. Ushbu maqola doirasida “ANOR BANK” AJ faoliyati misolida “Raqamli bank” tushunchasiga taʼrif berib oʻtamiz hamda raqamli bank xizmatlarining ayni damdagi holati va bankning faoliyati tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan anʼanaviy banklar va raqamli banklarning faoliyatini taqqoslash natijasida mamlakatimizdagi bank xizmatlarini rivojlantirish borasida xulosalar shakllantirilgan.

Prezidentimizning 2020-yil 12-maydagi “2020—2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoniga asosan hozirda 6 ta tijorat banki – “Ipotekabank”, “Sanoatqurilishbank”, “Turonbank”, “Asakabank”, “Aloqabank” va “Agrobank” moliyaviy diagnostika asosida istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqish va xususiylashtirish masalalari boʻyicha xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni boshlagan.tashkil etildi. Shu yilning oʻzida Oʻzbekistonda birinchi boʻlib jismoniy shaxslar uchun overdraft kreditlar joriy etildi.2018-yil aprel oyida mamlakatimizda ilk bor hech qanday hujjatlarsiz 15-20 daqiqa ichida ajratiladigan onlayn mikroqarz xizmati, iyul oyida esa jismoniy shaxslar uchun moʻljallangan Aloqamobile ilovasi ishga tushirildi. Ayni paytda u orqali jismoniy shaxslar bir qancha xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Istalgan bank kartalariga oʻtkazmalar, 300 dan ortiq xizmatga onlayn toʻlovlar, davlat xizmati koʻrsatuvchi 24 ta tashkilotga toʻlovlar, QIWI, Webmoney va “Yandeks dengi” elektron hamyonlariga toʻlovlar, onlayn mikroqarz olish,



omonat ochish, to'ldirish, valyuta konversiyasi, to'lovlar monitoringi kabilar shular jumlasidandir. 2020-yil noyabr oyida esa ilovaning Zoomrad nomi bilan yangi versiyasi ishlab chiqilib, unda kartaga buyurtma berish, bank rekvizitlari orqali istalgan hisobraqamga to'lov o'tkazish, avtoto'lov va tezkor to'lovlar yaratish, kommunal xizmatlar balansini onlayn kuzatish, ID orqali maktabgacha ta'lim muassasalariga to'lovlar qilish kabi funksiyalar qo'shildi. Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va an'anaviy xizmatlarni masofaviy xizmatlarga aylantirish maqsadida bank o'zining dasturchilar jamoasini tashkil etdi. Endilikda amaldagi xizmatlarni avtomatlashtirish va yangi innovatsion ishlanmalarni outsorsing kompaniyalarni jalb qilmasdan, o'z resurslari hisobiga amalga oshirmoqda. Dasturchilar jamoasi mobil ilovalarni takomillashtirish, avtomatlashtirilgan skoring (1-noyabrdan faqat pasportning o'zi bilangina kredit olish imkoniyati), kredit monitoring tizimlarini ishlab chiqish, onlayn buyurtma qilingan kartalardan xizmat haqini avtomat undirish va amaldagi xizmatlar hajmini kengaytirish maqsadida tashqi to'lov tashkilotlari va to'lov tizimlariga API yozish (AloqaExpress – tizimi mahalliy pul o'tkazmalari, Maktabgacha ta'lim vazirligi uchun billing tizimi – endilikda bog'chalarga onlayn to'lov qilish imkoniyati mavjud) va boshqa bir qator loyihalar bo'yicha ishlamoqda. Mijozga yo'naltirilgan ishlash tizimi. Bank tizimini isloh qilish strategiyasining asosiy yo'nalishlari sifatida strategik investorlar, bozor tamoyillariga moslashtirish, davlat mablag'lariga qaramlilikni yo'qotib, teng raqobat sharoitini vujudga keltirish kabi masalalar belgilangan. Banklarning bu jarayonga o'tishida esa ularning biznes modellarini o'zgartirish va mijozga yo'naltirilgan ishlash tizimini joriy qilishning ahamiyati katta. Bu jihatlarni "Aloqabank" faoliyati va yutuqlarida ko'rish mumkin.

— Xususan, 2018-yil avgust oyida O'zbekiston amaliyotda birinchi marta UzAvtoSavdo mobil dasturi orqali avtomashina sotib olish uchun onlayn tarzda to'lov qilish tizimi yo'lga qo'yildi, — deydi bank boshqaruv raisi o'rinbosari Farruh Mahkamov. — Keyinchalik ushbu tizim Markaziy bankning Munis tizimiga integratsiya qilindi va barcha mobil ilovalar orqali to'lov qilish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, 2018-yil sentyabr oyida bank UnionPay International va UzCard to'lov tizimlari bilan hamkorlikda O'zbekistonda birinchi bo'lib kobeydj kartalarni muomalaga chiqardi. Ushbu kartalardan endilikda UnionPay International xalqaro to'lov tizimining ham O'zbekistondagi, ham dunyoning 170 ta davlat va mintaqasidagi infratuzilmasida foydalanish mumkin. Ushbu loyiha UnionPay International kompaniyasi tomonidan munosib baholanib, bank "Yil kashfiyoti



2018” nominatsiyasida g‘olib bo‘ldi, 2019-yil esa “Eng kreativ bank” nomiga munosib ko‘rildi. Shu bilan birga, “Aloqabank” yurtimizdagi barcha tijorat banklari tomonidan emissiya qilinuvchi kobeydj kartalarning tranzaksiyalari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank hamdir.

— Yuridik shaxslarga mo‘ljallangan Aloqa business mobil ilovasi bugungi kunda aholining og‘irini yengil qilishga ko‘mak bo‘lmoqda, — deydi Farruh Mahkamov.

— 2019-yil dekabr oyida ishga tushirilgan ushbu dasturning boshqa bank ilovalaridan afzalligi shundaki, unda foydalanuvchi bitta akkaunt orqali o‘zining bir nechta tashkiloti hisobraqamlarini boshqarishi mumkin. Shu bilan birga, “Zolotaya korona” bilan hamkorlikda 19 ta davlatdan xalqaro pul o‘tkazmalarini onlayn tarzda Uzcard va Humo kartalariga qabul qilish xizmati joriy etildi.

Transformatsiyadan kutilayotgan natijalar. Tijorat banklarini xalqaro moliya institutlari ko‘magida transformatsiya qilishdan kutilayotgan asosiy natijalardan biri bank ishida yetarli darajada tajriba, bilim va obro‘ga ega bo‘lgan strategik investorlarni jalb qilgan holda qator tijorat banklarida davlat ulushini kamaytirish, faoliyatga xalqaro tajribani olib kirishdir. Qolaversa, kredit tashkilotlarini ularga xos bo‘lmagan funksiyalarni bajarishdan, shuningdek, ortiqcha yuklamalardan ozod qilish orqali ma‘muriy yukni izchillik bilan bartaraf etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmati turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko‘zlanmoqda.

“Aloqabank”da bu borada qilinadigan ishlar talaygina. Mutasaddilarining so‘zlariga ko‘ra, bank hozir Rossiyaning yirik banklari bilan transchegaraviy pul o‘tkazmalari va masofaviy biometrik identifikatsiyani joriy qilish, elektron pullar hamda hamkor marketpleyslar orqali muddatli to‘lov tizimini yo‘lga qo‘yish kabi loyihalar ustida ish olib bormoqda. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish natijasida moliyaviy xizmatlarning ommabopligi oshadi, moliya bozorida teng raqobat sharoitlari shakllanadi, kreditlash faqat bozor shartlariga bo‘ysunadi. Xizmat ko‘rsatish modernizatsiyalashib, banklarning samarali infratuzilmalari yaratiladi, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘i rivojlanadi, faoliyat avtomatlashtiriladi, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlar keng joriy qilinib, bank tizimining moliyaviy barqarorlik darajasi ko‘tariladi

Raqamli inqilob bizning hayotimiz va jamiyatlarimizni misli ko‘rilmagan darajada o‘zgartirib, ulkan imkoniyatlar bilan bir qatorda ko‘plab qulayliklarni yaratib bermoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda moliyaviy munosabatlarda



ilg'or texnologiyalarni qo'llash AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi yetakchi mamlakatlar uchun ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. So'nggi yillarda iqtisodiyot va ijtimoiy soha faoliyatida rivojlanishning yangi to'liqini raqamli texnologiyalarning yangi avlodi, ya'ni sun'iy ong, robototexnika, simsiz aloqa texnologiyalari yordamida ro'y bermoqda. Yangi texnologiyalar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga katta hissa qo'shishi mumkin, ammo biz kutilgan ijobiy natijalarni ololmasligimiz mumkin. Agar biz raqamli texnologiyalarning to'liq ijtimoiy va iqtisodiy potensialiga erishmoqchi bo'lsak, kutilmagan oqibatlariga yo'l qo'ymagan holda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni zudlik bilan rivojlantirish zarur. Mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2030-yilgacha "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini amalga oshirishni taklif etdi.1 Raqamli iqtisodiyot tushunchasi ilk bor 1990-yillarda Yaponiya inqirozi davrida yapon professori tomonidan qo'llanilgan. 1995-yil Yevropada Don Tapskotning "Цифровая экономика: обещание и опасность в эпоху сетевой разведки" asari va 1995-yil Nikolas Negroponte (Masachusetts, AQSh) ning tadqiqot ishida qo'llanilgan2 So'nggi o'n yillikda butun dunyo bo'ylab raqamli ma'lumotlarga asoslangan biznes modellaridan foydalangan holda ko'plab raqamli platformalar paydo bo'ldi va ular mavjud sanoat tarmoqlari o'rnini egalladi. Platformalarning ustunligi shundaki, bozor kapitallashuvi bo'yicha dunyodagi yetakchi sakkizta kompaniyaning yettitasi platformaga asoslangan biznes modellaridan foydalanishadi. Jug'rofiy jihatdan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi juda notekis.Hozirgi vaqtda dunyo raqamli iqtisodiyotga o'tmagan va giperraqamli mamlakatlar o'rtasidagi keskin farq bilan ajralib turadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda har besh kishidan to'rttasi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa har besh kishidan bittasi Internetdan foydalanadi.Raqamli platformalar dunyo iqtisodiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bozor kapitallashuvi 100 million AQSh dollaridan oshgan platforma kompaniyalarining umumiy qiymati 2017-yilda 7 trln dollardan oshiqroq baholandi – bu 2015-yilga nisbatan 67 foizga yuqori. Ba'zi global raqamli platformalar ma'lum sohalarda juda kuchli bozor pozitsiyalariga erishdilar.Masalan, Alphabet (Google) Internetda qidirish bozorining 90 foiziga egadir. Facebook global ijtimoiy media bozorining uchdan ikki qismini tashkil qiladi va dunyo iqtisodiyotining 90 foizidan ortig'ida eng yaxshi ijtimoiy media platformasi hisoblanadi. Amazon dunyodagi onlayn chakana savdo faoliyatining qariyb 40 foiz ulushiga ega va uning Amazon



Web Services global bulut infratuzilmasi xizmatlari bozoridagi ulushi ham shuncha ulushni tashkil etadi. Xitoyda WeChat (Tencentga tegishli) bir milliarddan ortiq faol foydalanuvchilarga ega va Alipay (Alibaba) bilan birgalikda uning to'lov yechimi deyarli butun Xitoy bozorini mobil to'lovlar uchun egallab oldi. Shu bilan birga, Alibaba Xitoy elektron tijorat bozorining qariyb 60 foiziga ega. Dunyo bo'ylab 26% banklar foydalanadigan birinchi yondoshuv raqamli texnologiyalarni to'liq raqamli transformatsiya sifatida emas, balki alohida loyiha sifatida tadbiiq qilishni ko'zda tutadigan yondoshuvdir. Bu holda raqamli transformatsiya uzoq muddatli rejalashtirish asosida va ko'plab loyihalarni amalga oshirgan holatda bosqichma-bosqich tadbiiq qilinadi. Ikkinchi yondoshuv raqamli iqtisodiyotning talablarini hisobga olgan holda yaratilgan kompaniya filialini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Raqamli transformatsiya usuli ancha ommabop hisoblanadi va u qarib 42% banklar tomonidan ishlatiladi. Bu yondoshuvning afzalliklari uzoq muddatli davrda mijozlarning talablariga moslashganlik, tashkilot ichida turli yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassislar ya'ni marketologlar, dasturchilar, information texnologiya mutaxassislari, analitiklar kabilarni o'z ichiga olgan komandalar tashkil qilish hisoblanadi. Bular natijasida tashkiliy tuzilmaning yuqori darajadagi moslashuvchanligiga erishiladi hamda yangi faoliyat yo'nalishlarini tezlashtirish imkoniyati yaratiladi. Raqamli transformatsiyaga bo'lgan uchinchi yondoshuv raqamli texnologiyalarni tashkilotning asosiy boyligi deb hisoblashga asoslangan. Bu usul boshqa yondoshuvlar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin, ammo u bankdagi barcha ichki va tarmoqlari o'rnini egalladi. Platformalarning ustunligi shundaki, bozor kapitallashuvi bo'yicha dunyodagi yetakchi sakkizta kompaniyaning yettitasi platformaga asoslangan biznes modellaridan foydalanishadi. Jug'rofiy jihatdan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi juda notekis. Hozirgi vaqtda dunyo raqamli iqtisodiyotga o'tmagan va giperraqamli mamlakatlar o'rtasidagi keskin farq bilan ajralib turadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda har besh kishidan to'rttasi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa har besh kishidan bittasi Internetdan foydalanadi. Raqamli platformalar dunyo iqtisodiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bozor kapitallashuvi 100 million AQSh dollaridan oshgan platforma kompaniyalarining umumiy qiymati 2017-yilda 7 trln dollardan oshiqroq baholandi – bu 2015-yilga nisbatan 67 foizga yuqori. Ba'zi global raqamli platformalar ma'lum sohalarda juda kuchli bozor pozitsiyalariga erishdilar. Masalan, Alphabet (Google) Internetda qidirish bozorining 90 foiziga egadir. Facebook global ijtimoiy media bozorining uchdan ikki qismini tashkil qiladi va



dunyo iqtisodiyotining 90 foizidan ortig'ida eng yaxshi ijtimoiy media platformasi hisoblanadi. Amazon dunyodagi onlayn chakana savdo faoliyatining qariyb 40 foiz ulushiga ega va uning Amazon Web Services global bulut infratuzilmasi xizmatlari bozoridagi ulushi ham shuncha ulushni tashkil etadi. Xitoyda WeChat (Tencentga tegishli) bir milliarddan ortiq faol foydalanuvchilarga ega va Alipay (Alibaba) bilan birgalikda uning to'lov yechimi deyarli butun Xitoy bozorini mobil to'lovlar uchun egallab oldi. Shu bilan birga, Alibaba Xitoy elektron tijorat bozorining qariyb 60 foiziga ega. Dunyo bo'ylab 26% banklar foydalanadigan birinchi yondoshuv raqamli texnologiyalarni to'liq raqamli transformatsiya sifatida emas, balki alohida loyiha sifatida tadbiiq qilishni ko'zda tutadigan yondoshuvdir. Bu holda raqamli transformatsiya uzoq muddatli rejalashtirish asosida va ko'plab loyihalarni amalga oshirgan holatda bosqichma-bosqich tadbiiq qilinadi. Ikkinchi yondoshuv raqamli iqtisodiyotning talablarini hisobga olgan holda yaratilgan kompaniya filialini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Raqamli transformatsiya usuli ancha ommabop hisoblanadi va u qarib 42% banklar tomonidan ishlatiladi. Bu yondoshuvning afzalliklari uzoq muddatli davrda mijozlarning talablariga moslashganlik, tashkilot ichida turli yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassislar ya'ni marketologlar, dasturchilar, information texnologiya mutaxassislari, analitiklar kabilarni o'z ichiga olgan komandalar tashkil qilish hisoblanadi. Bular natijasida tashkiliy tuzilmaning yuqori darajadagi moslashuvchanligiga erishiladi hamda yangi faoliyat yo'nalishlarini tezlashtirish imkoniyati yaratiladi. Raqamli transformatsiyaga bo'lgan uchinchi yondoshuv raqamli texnologiyalarni tashkilotning asosiy boyligi deb hisoblashga asoslangan. Bu usul boshqa yondoshuvlar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin, ammo u bankdagi barcha ichki va tashqi jarayonlarning to'liq raqamli transformatsiyasi strategiyasi asosida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda ushbu usul vositasida raqamli transformatsiyani 32% banklar tomonidan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayoni banklarning raqobatbardoshligini saqlab turish uchun kerakli bo'lgan muhim tadbiiq hisoblanadi va bank operatsiyalarning uchdan bir qismi raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshirilayotganligi buning dalilidir. Bunday holat raqamli zamonaviy texnologiyalarning afzalliklarini tushuna boshlagan jamiyatning talablari tufayli ham yuzaga kelayapti. Ta'kidlash joizki, raqamli transformatsiya jarayoni aniq bankning xususiyatlar va talablarini hisobga olgan holdagi mukammal strategiyaga asoslangan bo'lishi kerak. Shundagina amalga oshirilgan raqamli strategiya bank sektorining samaradorligini oshirish va moliya-kredit tashkilotlarida zamonaviy



texnologiyalarni qo'llashga imkon beradi. "Challenjer banklar" deb ataladigan neobanklar foydali biznes integratsiyalari bilan mustahkamlanadi ammo oddiy foydalanuvchi tajribasi bilan ham amaliyotlar bajarish uchun bank xizmatlarini moliyaviy dasturiy ta'minot bilan birlashtiradi. Raqamli tarmoq raqamli bankning tayanchi bo'lib, call-markaz, internet-banking, mobil banking va filiallar qo'yilgan poydevorga qo'shimchalar hisoblanadi. 1989-yil oktabr oyida ish boshlagan First Direct (Buyuk Britaniya) filialsiz bank yaratishda birinchilardan bo'lgan. Mijozlarga xizmat ko'rsatish bank tomonidan telefon orqali amalga oshirilgan. Birinchi kun davomida bank 1000 ta qo'ng'iroqlarni qabul qilgan va 1995-yilga kelib First Direct portfelida 500 000 dan ortiq mijozlar bor edi. Birinchi marta "raqamli bank" yoki neobank atamasi 2014-yilda AQShda nashr etilgan Kris Skinnerning "Digital bank" kitobida batafsil tavsiflangan va keyinchalik 2015-2020 yillar davomida Yevropada rivojlangan.³ Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik neobanklar bank litsenziyalarini cheklovchi to'siqlar tufayli texnik jihatdan to'liq "banklar" hisoblanmaydi. Aytish joizki, raqamli transformatsiya iqtisodiyot uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Avvalo, banklar tushumini o'sadi. Bu mahsulot va xizmatlarning yangi tur va yo'nalishlarini ishga tushirish hisobiga yuz beradi. Bundan tashqari operatsion xarajatlarning kamayishi va jarayonlar samaradorligi oshishiga ham erishiladi. Buxgalteriya, soliq va kadrlar hisobini yuritishni avtomatlashtirish axborotning katta hajmini tez va sifatli boshqarish imkonini beradi. Ma'lumotlarni "Big Data" usuli bilan qayta ishlash maqsadli mijozlarni muayyan mezonlar bo'yicha o'ta aniqlik bilan ajratib olish (targetlash) imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa marketing tadbirlarining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, boshqaruv qarorlarining sifati ham oshadi. Rahbar endi mas'ul bo'limlar to'playdigan hisobotlarga bog'liq bo'lib qolmaydi, balki tizimni ochishi va umumiy ma'lumotlardan aniq ko'rsatkichlarga o'tishi, olingan natijalarni esa darhol oldingi davr natijalari bilan solishtirishi mumkin bo'ladi. Jarayonlarni avtomatlashtirish tufayli prognoz modellari ancha aniq va soddalshib boradi. Bundan tashqari, ma'lumotlarning tartibga solinganligi va shaffofligi tufayli korxonaning xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyatlari oshib, xalqaro loyihalarda ishtirok etish uchun sharoit yaratiladi. Raqamli banking iste'molchilarga yaratadigan eng yaxshi qulayligi bu navbat kutishning hojati yo'qligi ya'ni keksa odam, ish bilan band bo'lgan ishchi yoki tashrif buyurishni istamaydigan oddiy odam bo'lsin, o'z uyida qulaylik bilan bank funksiyalaridan foydalanishlari imkonini beradi va bu 24/7(kun davomida 24 soat, haftaning 7



kunida) kechayu kunduz bank xizmatlarini amalga oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi kompaniyalar iqtisodiyotning anchagina ulushini egallaydi. Shuning uchun ularni raqamlashtirish mamlakat YAIM o‘shishiga bevosita ta’sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat sektorining raqamli transformatsiyasi O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishning muhim drayverlaridan biri bo‘la oladi. Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Raqamli Qozog‘iston” davlat dasturini ko‘rishimiz mumkin. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, uni amalga oshirishdan jami iqtisodiy samaradorlik 2018-2019-yillarda 2 mlrd. AQSH dollaridan ko‘proqni tashkil etgan. Birgina shuning o‘zi ham axborot texnologiyalarini iqtisodiyotga joriy etish foydasiga salmoqli dalil bo‘la oladi. An’anaviy bank faoliyatining eng katta kamchiliklaridan biri hujjatlarning qog‘oz shaklda aylanishidir. Raqamli banklarda xizmat tezligiga va ortiqcha hujjat aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik alohida ahamiyatlidir. Bundan tashqari, raqamli banklar foydalanuvchiga kommunal to‘lovlar, telefon uchun va kredit qarzdorliklarni so‘ndirish kabi muntazam to‘lovlar uchun avtomatik to‘lovlarni o‘rnatish imkonini beradi. Mijoz endi to‘lov sanalarini eslab qolish uchun harakat qilishi shart emas. Mijoz kelgusi va to‘lanmagan to‘lovlar haqida ogohlantirishlarni tanlashi mumkin. Raqamli banking xizmatlarini chekka hududlarga kengaytirish har tomonlama rivojlanish sari qadam hisoblanadi. Qishloqning chekka hududlarida bank ofislarini ochish ko‘p xarajatlarni talab qiladi va bunda ham raqamli banklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Raqamli bank orqali pul o‘tkazmalari qalbaki valyuta xavfini kamaytiradi. Raqamli banklar yordamida foydalanuvchi bir tugmani bosish orqali noto‘g‘ri joylashtirilgan yoki yechib olingan mablag‘lar haqida xabar berishi va bloklashi mumkin. Ushbu imtiyoz bank mijoz uchun mavjud bo‘lgan maxfiylik va xavfsizlikni sezilarli darajada mustahkamlaydi. Naqd pulsiz jamiyatni targ‘ib qilish orqali raqamli bank qora pullarning aylanishini cheklaydi, bu orqali Hukumat fondlar harakatini kuzatib borishi mumkin. Uzoq muddatda raqamli banklar faoliyati esa valyutaga bo‘lgan talabni kamaytirishi iqtisodchilar tomonidan tasdiqlangan.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-578-son 01.11.2019. <https://www.lex.uz>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga



“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026

yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”

<https://www.lex.uz>

4. Vahobov A.V., Malikov T.S. “Moliya” Darslik.–T.:“Sharq” nashriyoti, 2010.

5. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. “Iqtisodiyot nazariyasi” Toshkent, 2017.

6. O.M.Abdullayev, A.A.Fattaxov, K.Axmedov “Raqamli iqtisodiyot”, Toshkent, 2018.

7. R.H.Ayupov “Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar”, O‘quv qo‘llanma, 2020.

